

**“JIZZAX QO‘ZG‘OLONI” VA “MAMATKARIM POLVON” DOSTONLARINING  
G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI**

**Xudoyberdiyeva Kamola**

*Sharof Rashidov nomidagi*

*Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti  
Folklorshunoslik va dialektologiya yo‘nalishi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada “Jizzax qo‘zg‘oloni” hamda “Mamatkarim polvon” dostonining g‘oyaviy - badiiy xususiyatlari tahlil qilingan. Jizzax qo‘zg‘oloni dostonida o‘zbek xalqining ozodlik, adolat va milliy mustaqillik uchun kurashi yuksak badiiy darajada ifodalanganligi ochib berilgan. “Mamatkarim polvon” tarixiy dostonida esa, kambag‘al xalq tinchligi, ozodligi uchun olib borilgan kurash tasviri, doston qahramoni Mamatkarimning mardligi, qahramonligi ko‘rsatgan jasorati tahlil qilingan. Milliy ozodlik uchun fidoyilik va jasorat ruhini ifodalab, vatanparvarlik, adolat istagi va xalqning erkinlikka bo‘lgan intilishlarini yoritgan. Xalqning jtimoiy adolatsizliklarga qarshi qo‘zg‘oloni orqali insonlarning birlik va mardligi tahlil qilingan. Qahramonlarnig xarakteri orqali insoniy va milliy qadriyatlar ochib berilgan. Tarixiy dostonlarning badiiy xususiyatlari haqida o‘ziga xos qarashlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar**

folklor, tarixiy doston, baxshi, tarixiy voqelik,

**«ДУХОВНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПОЭМ  
"ДЖИЗЗАХСКОЕ ВОССТАНИЕ" И "МАМАТКАРИМ ПОЛВОН"**

**Худойбердиева Камола**

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова  
Институт языков и культуры народов Центральной Азии Магистрант 2-го курса  
направления фольклористики и диалектологии

**Аннотация**

В статье анализируются духовно-художественные особенности поэм «Джиззахское восстание» и «Маматкарим полвон». В поэме «Джиззахское восстание» ярко и художественно отражена борьба узбекского народа за свободу, справедливость и национальную независимость. Историческая поэма «Маматкарим полвон» раскрывает изображение борьбы бедного народа за мир и свободу, а также бесстрашие и героизм главного героя — Маматкарима. В произведениях показаны преданность и мужество ради национального освобождения, идеи патриотизма,

стремление народа к справедливости и свободе. Через восстание народа против социальной несправедливости раскрываются единство и мужество людей. Характеры героев отражают человеческие и национальные ценности. Также представлены авторские взгляды на художественные особенности исторических поэм.

**Ключевые слова**

фольклор, исторический эпос, бакхши, историческое событие

**IDEOLOGICAL AND ARTISTIC FEATURES OF THE EPIC “JIZZAKH UPRISING” AND “MAMATKARIM POLVON”**

**Kxudoyberdiyeva Kamola**

Sharof Rashidov Samarkand State University Central Asian Peoples' Languages and Culture Institute Folkloristics and Dialectology Department 2nd year Master's Student

**Annotation**

This article analyzes the ideological and artistic features of the epic “Jizzakh Uprising” and Mamatkarim Polvon”. The epic expresses the Uzbek people's struggle for freedom, justice, and national independence at a high artistic level. The historical epic “Mamatkarim Polvon” depicts the fight of the poor people for peace and freedom, highlighting the bravery and heroism of the main hero Mamatkarim. It highlights the spirit of sacrifice and bravery for national freedom, patriotism, the desire for justice, and the people’s aspiration for liberty. Through the depiction of the people's uprising against social injustices, the unity and courage of individuals are portrayed. The characters reveal human and national values. The article also presents unique perspectives on the artistic characteristics of historical epics.

**Keywords**

folklore, historical epic, bakxshi, historical event

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining noyob durdonalaridan biri xalq dostonlari hisoblanadi. Xalq dostonlari juda uzoq kechmishda jonli og‘zaki ijodda paydo bo‘lgan bo‘lib, uning ijodiy tarixi juda uzoq asrlarga borib taqaladi. Olimlarning aniqlashicha, epos o‘tmish zamonlar to‘g‘risida qahramonlik idealizatsiyasi ko‘lamidagi hikoyalar, rivoyatlardi. Akademik V.M. Jirmunskiy ta‘rificha: “Epos-bu xalqning qahramonlik idealizatsiyasi ko‘lamidagi jonli o‘tmishdir. Uning ilmiy-tarixiy qimmatini, ayni paytda, juda kata ijtimoiy, ma‘daniy –tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir”. [1.195]

Tarixiy dostonlar o‘zbek xalq dostonlarining bir turi bo‘lib, baxshilar repertuarida boshqa dostonlarga nisbatan ancha kam uchraydi. Tarixiy dostonlarda tarixda sodir bo‘lgan biror voqea tasvirlanadi. Tarixiy dostonlar bir qancha xususiyatlariga ko‘ra

bir-biridan farqlanadi va quyidagicha tasniflanadi: a) tarixiy-qahramonlik; b) tarixiy-fantastik; d) tarixiy konkret yoki yangi dostonlar e) avtobiografik dostonlar;

“Jizzax qo‘zg‘oloni” va “Mamatkarim polvon” –“ tarixiy-konkret yoki yangi dostonlar”ning yorqin na‘munalaridan biri hisoblanadi. Shoir Fozil Yo‘ldosh ushbu dostonlarni yorqin ranglarda tasvirlaydi. Dostonlar XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida yaratilgan bo‘lib o‘zbek xalq dostonchiligida yangi ijodiy bosqichni boshlab beradi. “Mamatkarim polvon” dostoni konkret tarixiy sharoitda yaratilgan bo‘lib ,u ozodlik uchun kurashni mehnatkash xalq manfaati tomonidan kuylaganligi bilan alohida ajralib turadi. Tarixiy dostonlarning xarakterli xususiyatlaridan biri shuki, bunday dostonlar tarixda ro‘y bergan real voqea-hodisalarni tasvirlaydi, ularning obrazlar tizimi ham o‘tmishda yashagan biror tarixiy shaxsga to‘g‘ri keladi. Bunday dostonlarda bosh qahramon boshqa dostonlar qahramoni singari idelizatsiya darajasiga ko‘tarilmaydi, balki qahramonning barcha ijobiy va salbiy xususiyatlari to‘laligicha ochib beriladi.

“Jizzax qo‘zg‘oloni” ham tarixiy konkret dostonlar tarkibiga kirib, u mustahkam tarixiy asosga ega. Ushbu dostonda Jizzax va uning atrofi aholisining chor mustamlakachilariga qarshi olib borgan milliy ozodlik harakati yoritilgan. Dostonni yozishdan oldin shoir qo‘zg‘olon ishtirokchilari Abdulla Ochilov, Mamasharif Husanov, Shodi Ashirmatov Mavlon Kenjayev Urdush Muqimov va boshqalar bilan shaxsan uchrashgan va suhbatlar olib borgan.Doston boshlanmasi bo‘layotgan urush tafsilotini berish bilan boshlanadi. Ushbu holat dostonda quyidagicha tasvirlanadi.

Bir-biriga yordam berib,  
 Jahon urishi boshlanib,  
 Bu yotgan mulkning ustida  
 Podsholar itday talashib,  
 Bir alomat urush bo‘ldi,  
 (It egaga boqmay qoldi.)  
 Men ham chetda qolmayin deb,  
 So‘ngra Amerika keldi.  
 Podshomon degan tortishdi ,  
 O‘lik-o‘likka ayqashdi,  
 Ko‘rganlarning aqli shoshdi. ,[2.4]

Yuqoridagi satrlardan anglashimiz mumkin bo‘ladiki, urush juda dahshatli tus olgan va insonning aqli bovar qilmas darajada ko‘p kishilar qurbon bo‘lgan. Bizning fikrimizcha, shoir bu holatni hech qanday mubolag‘asiz yorqin satrlarda ifoda etgan. Doston satrlaridan urushda eng ko‘p jabr-u sitam chekkan kambag‘al ishchi-dehqonlar ekanligini, yurtdagi aksariyat boylar esa ig‘vogarlik qilib, kambag‘al xalqning musibat chekishiga sababchi bo‘lganini ko‘ramiz. Mahalliy aholining aksariyati dehqonchilik

bilan shug‘ullangan, asosan, odamlar g‘alla yetishtirish bilan band bo‘lgan. Hukumat tomonidan ularning yerlari tortib olinib, temir yo‘l o‘rmon xo‘jaligida band bo‘lgan rus oilalariga berilgan, bundan tashqari yaylovlar qisqartirilgan, o‘rmonlar qattiq nazorat ostida bo‘lgan. Shuncha g‘am-tashvish ichida qolgan aholi orasidan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo‘lgan mehnatga layoqatli erkaklarni noma‘lum vaqtga ayni qishloq xo‘jaligining ishlari qizg‘in vaqtda olib ketilishi xalq boshiga ko‘plab musibatlarni olib kelishi tayin edi. Shoir buni quyidagicha bayon qiladi:

Bo‘shab qoldi mazgil-joylar.  
 Bu o‘lganga sabab bo‘lgan,  
 Ig‘vogar o‘rtada boylar,  
 Bularda rahm bo‘lmaydi,  
 Urushga borgan kambag‘al  
 Sira ham omon kelmaydi.  
 Shunday bo‘ldi qattiq kuni.  
 Bir necha ishchi-dehqoning  
 Urushda o‘lgan yolg‘iz uli[.3. 17-56]

Oddiy mehnatkash xalqning zahmat chekkan ayanchli ahvoli dostonning bir necha o‘rinlarida tilga olingan. Ushbu dostonda zolim amaldorlardan bezor bo‘gan xalq pichoq suyakka taqalgan so‘ng birlashib, bir yoqadan bosh chiqarib haqsizlikka qarshi kurashganlari aks etadi. Har to‘pga bir mard kishi bosh bo‘ladi va Jizzaxda birlashishni maslahat qilishadi. Biroq xalqning quroli asosan kaltak ,tosh ,g‘ishtdan iborat bo‘ladi. Shunday bo‘lishiga qaramay, juda kata jang bo‘lib o‘tadi. Quloq solmaydi tiliga,

Yurgizmaydi o‘z yo‘liga.  
 “Dushman!”—deydi yig‘ilgan xalq.  
 Kaltakman soldi beliga .  
 Ko‘ring yig‘ilgan elatni  
 Mingboshisini yo‘qotdi,  
 Hokim bilan pristav,  
 Ikkovi dunyodan o‘tdi...

Vajohat bilan jangga kirishgan oddiy xalq shafqatsizlarcha bostiriladi. Qishloqlarga, qishloqlarga, xirmonlarga o‘t qo‘yadi. Hatto ayol- qizlarni ham ayab o‘tirmaydi. Bu holat ham dostonda jonliday qilib tasvirlangan.

Barcha odam g‘amga to‘ldi,  
 Jizzax ham kata eldi( r),  
 Bola-chaqa ko‘p yig‘ildi.  
 Yig‘ib olgandir sallotlar,  
 Tovonini bosib otlar,  
 Qiz-juvonni molday qilib,

Bu oldiga haydab oldi.  
Qilib qattiq siyosatdi.  
Qiz-xotinlar izillasa,  
Ustidan miltiq bo'shatdi.

Shoir dostonida mardikor qilib o'zga elga sotilgan kambag'al xalqning ayanchli taqdirini ochiq-oydin bayon etadi. "Mardikorning bir nechasi yo'l ochib, bir nechasi yer qazib okop tayyorlaydi, qanchasi o'rmonda yog'och kesadi. Kun sovuq, qor kuraydi. Qor ketib bu yerda yoz bo'ladi, deb ko'ngliga sira kelmaydi. Kigiz etik po'stini bori kun ko'rayotir, sag'al usti yuqorog'ini sovuq urayotir, qalin qorda qatiq ishlab terlasa sovuqqa shunday qotib yilayotir." "Jizzax qo'zg'oloni" dostonida oddiy xalq, mehnatkashlarning boshiga tushgan qora kunlar hamda kelajakka umid bilanq arash holatlari aniq aks ettirilgan. Ushbu doston o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvolni tasvirlash bilan birga xalqning o'ziga xos dunyoqarashini, bosqinchilikka qarshi kurashdagi milliy ruhiyatini aks ettiradi. Doston iste'dodli shoir Fozil Yo'ldoshning nafaqat xalqning erkinligi va milliy ozodlik g'oyalarini tarannum etuvchi, balki uning jasorati va matonatidan hikoya qiluvchi eng yaxshi epik asarlaridan biridir

Yana bir tarixiy dostonning yorqin na'munalaridan biri bo'lgan "Mamatkarim" da ham zulm va adolatsizlikka qarshi kurash g'oyasi namoyon bo'ladi. Fozil Yo'dosh o'g'lining "Mamatkarim polvon" dostoni qahramoni Mamatkarim xalqqa qarshi inson emas, avliyo ham emas, balki oddiy xalqqa yordam qo'lini cho'zadigan, xalq manfaatini ko'zlaydigan oddiy bir insondir. Ushbu dostonning yozib olinish tarixi 1937-yilga borib taqaladi. Doston M. Zarifov tomonidan yozib olingan va 1941- yildan so'ng targ'ib qilish va ommalashtirish ishlari boshlanadi.[4.17-56T o'jiboy G'oziboyev esa "Mamatkarim polvon" dostoni 1914-1915-yillarda ijod etilgan deydi[5.41 ]va dalil uchun 1949-yili Samarqand viloyati Bulung'ur tumaniga borib unda Fozil shoirning va ayrim qishloq keksalarining aytgan so'zlariga ishonadi. Boshqa bir folklorshunos olim Jumaniyoz Qobulniyozov o'zining 1959 -yilda chiqqan "Sho'ro davrida o'zbek xalq poetik ijodi" va 1969- yilda nashr etilgan "O'zbek folklorining rivojlanish yo'llari" degan monografiyalarida dostonni yangi davr xalq ijodi sifatida qaraydi. Folklorist Temir Ochilov o'zining "Mamatkarim polvon dostonining tarixiy asoslari" degan monografiyasida: "Mamatkarim polvon" dostoni to yozib olingan vaqtgacha shoir tomonidan ishlangan va uning bo'sh joylari xalq materiallari bilan to'ldirib borilgan, og'zaki ijro va ijod jarayonida davr, sharoit e'tibori bilan u yoki bu darajada ayrim o'zgarishlar kiritilib borilgan. Xuddi shuningdek, dostonning eng so'nggi betlarida "o'zgarish boshlangan" Mamatkarim polvon" haqidagi ishlarning "joy-joyida" qolib ketganligi shoir tomonidan keying vaqtlarda kiritilgan bo'lishi mumkin" deb izohlaydi. Bizningcha, "Mamatkarim polvon" dostoni bo'lib o'tgan qo'zg'olon ta'sirida paydo bo'ladi va u mukammal, ishonchli bo'lishi uchun shoir

xalqning o‘zidan aniq dalillar to‘plab yozib olingunga qadar doston ustida ishlagan. Mazkur dostonda sodir bo‘lgan voqealar ham, qahramonlar ham, joylar ham to‘qima emas real hayotda mavjud bo‘lgan. Dostonda uydurmalar , bo‘rttirishlar yo‘q. Doston bosh qahramoni Mamatkarim polvon hayotda ham zo‘r bilagi kuchli polvon bo‘lganligini qishloqdoshlari keksa kishilar aytib o‘tgan. . “Mamatkarim polvon” ning boshlanmasi doston qahramonining xarakteriga tavsif berish bilan boshlanadi: “Mamatkarim shunday kuchli bo‘ldi: tegirmon toshini bir qo‘li bilan ko‘tarib turardi. Amaldor, sipohi, qozi, mingboshilarni ko‘rsa obro‘yli odam deb iymenib turmas edi, so‘ziga quloq solmas edi.[6.1] Demak qahramon ikkiyuzlamachilikdan yiroq, o‘z kuchiga ishongan kishilardan bo‘lgan. Buni dostonning keying o‘rinidagi “Jomboyning Quyunchi urug‘idan bo‘lgan Eshmamatboy bilan bo‘lgan suhbatida ham kuzatamiz. Boy unga shunday nasihat qiladi:

Mazgilinga seni olib borayin,  
 Olib borib, yaxshi sarpo berayin,  
 Dunyo kerak bo‘lsa qo‘lingga berib,  
 Bir urug‘miz, seni o‘g‘il qilayin,  
 Kambag‘alsan senga bir ot mindirib,  
 Endi seni shodmon qilib kuldirib,  
 O‘g‘lim deyin izzat obro‘ying qilib

Boyning bu taklifiga Mamatkarim shunday javob beradi: “Boylik hamisha o‘zingda turarini bildingmi? Bu ko‘chmanchi dunyo shu vaqtgachayin senda tursa endi endi og‘ishib kambag‘allarda ham turar”. Demak doston bosh qahramoni boylikdan xalqini ustun qo‘yadigan mehnatkash xalqning erkini himoya qiladigan ezgu maqsadlarin amalga oshirishda tinmay mehnat qiladigan qahramon sifatida tasvirlanadi. Doston nihoyasida Mamatkarim polvon uyushtirilgan terror qurboni bo‘ldi. Terrorni uyushtirgan xoinlar ikki kishidan iborat bo‘lib, eng achinarlisi ular uning o‘z amakisi Usmon qozi Ismoilov va tog‘asi Ahmad mingboshi Pirmuhammedov bo‘lgan. O‘sha qarindoshlari tomonidan yo‘llangan qotillar Pirdon qishloqlik Yo‘lyaxshi ,jomboytepalik Muhammadsodiq va Abdulla tentaklar bozordan qaytayotgan Muhammadkarim polvonni vaxshiylarcha otib o‘ldiradi. Bu hol dostonda quyidagicha tariflanadi:

El yotar — xuftonda Jomboydan qaytdi,  
 Beg‘am, yayov kelayotgan yo‘lida,  
 To‘rtovi ham miltig‘ini tiklatdi,  
 Shu zamonda miltig‘ini bo‘shatdi.  
 Yashinday bo‘p o‘qi Polvonga yetdi,  
 O‘qi bu Polvondan tuyrab o‘tdi.  
 Armon bilan endi yo‘lda yeshitdi,  
 Hech kimga ko‘rinmay o‘tgan kishilar,

Bular o‘z mazg‘iliga qarab ketdi.

Doston garchi fojia bilan yakun topgan bo‘lsa-da unda yosh-avlod uchun o‘rnak bo‘ladigan jihatlar ko‘p. Ayniqsa, bosh qahramon Mamatkarim obrazidagi vatanparvarlik g‘oyalari, xalqini xurmat qilish, so‘zidan qaytmaslik kabi fazilatlar aks etadi. Har ikkala tarixiy dostonlarda ham milliy ozodlik g‘oyalari ulug‘lanadi xalqning jasorati va matonati, mehnatkashlarning kelajak orzulari qalamga olinadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

- 1.Жирмунский В.М. Узбекский народный героический эпос. Л., 1962, с 195.
- 2.“Jizzax qo‘zg‘oloni” dostoni (aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li)
- 3.Dastagul,ko‘p tomlik-Toshkent,1965.-17-56 betlar.
- 4 Ғозибоев Т., Ғозил Йулдош углининг шуро давридаги ижоди. - Тошкент,1955, 41-бет
- 5 Ўзбек фольклори» (хрестоматия) 2-китоб. Тузувчи Ходи Зариф. - Тошкент, 1941. - 35-44-б
6. Mamatkarim Polvon dostoni (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li)